

RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASHDA OLIY TA'LIM SIFATI MENEJMENTINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Askarov Abror Davlatmirzayevich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Termiz davlat universiteti ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i,

Termiz sh., O'zbekiston

e-mail: a.askarov@tersu.uz

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oliy ta'lim muassasasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdagi ta'lim sifati menejmentining asosiy tendentsiyalari va zamonaviy modelining pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish masalasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Oliy, ta'lim, sifat, intellektual faoliyat, menejment, tendentsiya, zamonaviy, model, globallashtirish, strategiya, islohot, mehnat bozori, raqobatbardosh, sifat menejmenti, moliyaviy salohiyat, xalqaro standart, yo'nalish, bilim, ehtiyoj.

Аннотация. В статье выделены основные направления управления качеством образования при подготовке конкурентоспособных кадров в современном высшем учебном заведении и совершенствование педагогических технологий современной модели.

Ключевые слова: Высшее образование, качество, интеллектуальная деятельность, управление, тренд, современный, модель, глобализация, стратегия, реформа, рынок труда, конкурентоспособность, управление качеством, финансовые возможности, международный стандарт, направление, знания, потребность.

Abstract. The article highlights the main trends in the quality management of education in the training of competitive personnel in a modern higher education institution and the improvement of pedagogical technologies of the modern model.

Keywords: Higher education, quality, intellectual activity, management, trend, modern, model, globalization, strategy, reform, labor market, competitive, quality management, financial capacity, international standard, direction, knowledge, need.

Ta'lim sifati masalasi hozirgi kunda mamlakatimizning "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilga asoslangan strategiyasida muhim siyosiy jarayonlar qatoriga

kiritilgan. Prezident inson qadri tushunchasini izohlar ekan, “Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko’rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog’lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz” deb qayd etadi [5].

O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalish bo’yicha Harakatlar strategiyasida Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lgan ta’lim tizimini takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi [1].

Harakatlar strategiyasining uzviy davomi bo’lgan, keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo’nalishi doirasida 100 ta maqsadni o’z ichiga olgan “2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo’nalishida ham ta’lim sifatini oshirish bo’yicha dolzarb vazifalar belgilangan [2].

Ko’pgina tadqiqotchilar tomonidan “ta’lim sifati” tushunchasining murakkab va ko’p o’lchovli ekanligi, ta’lim sifatining abstrakt xususiyati rad etilib, yuqori sifat tushunchasining mazmuni ushbu darajaga mutaxassisni tayyorlash vaqtida hal qilinishi lozim bo’lgan vazifalarga maksimal mos kelishlikdan iboratligi ta’kidlanadi.

S.N.Severin va V.V.Savchuk ta’lim sifati zamonaviy ijtimoiy va texnologik talablarga bo’lgan yondashuv degan xulosaga kelib, bunda, avvalombor, talabalarning ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim sifati ta’minlanishini, ta’lim mazmunini tanlashga erishilishini, tashxislovchi va operatsion (aniq, vositalar asosida ishlab chiqilgan) maqsadlarni belgilash orqali sifatni o’lchash hamda belgilash uchun muayyan imkoniyat yaratilishini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, ular tomonidan o’z shaxsiy qarashlariga tayanib, ta’lim sifati mohiyati zamirida sub’ektlar (o’qituvchi va talabalar)ning darajasi – didaktik jarayon loyihasining darajasi – yaratilgan imkoniyatlar (sharoit va resurslar) darajasining ta’lim natijalariga bog’liqligi va unda sub’ektiv, kontseptual, protsessual, muhit hamda samara kabi beshta aspektni ko’rib chiqish zarurati ochib berilgan. [9; 7-8 b].

Olimlar tomonidan ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi omillar sifatida turli yo’nalishlar keltiriladi: ta’lim muassasasini boshqarish sifati, kadrlar sifati, o’quv

dasturlari darajasi, o'quv jarayoni holati, infratuzilma holati, o'quv muhiti darajasi, talabalarni jalb qilish sifati va boshqalar.

Xech bir tashkilot, xech bir korxonaga yoki muassasa muvaffaqiyatga boshqaruvsiz erisha olmaydi. OTM boshqaruvida esa faoliyat samaradorligi uning menejmentida ko'rinadi, menejment va ta'lim sifati tushunchalari OTMni barcha yo'nalishlarda tizimlashtirilgan va zamonaviy yondashuv asosida boshqarish tendentsiyalarini to'g'ri shakllantirish, boshqaruvning o'ziga xos modeli va boshqaruv funksiyalarini ishlab chiqish, ta'lim sub'ektlarining vazifalarini belgilab berish orqali uzviy aloqador hisoblanadi.

Ta'lim sifati boshqarishda Umumiy sifat menejmenti (TQM) tamoyillarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy sifat menejmenti bu – tashkilotning intellektual faoliyat natijalarini ham baholash mumkinligini nazarda tutuvchi usul hisoblanadi. Sifat menejmenti sifat siyosati, maqsadi, ma'suliyati kabi aspektlardan iborat bo'lib, sifat tizimi doirasida sifatni rejalashtirish, boshqarish uni yaxshilashni ta'minlashga olib keladi .

Ta'lim jarayonlarini boshqarishda zamonaviy sifat menejmenti – OTM faoliyatini tizimlashtirish, samaradorlikka ta'sir etuvchi har bir jarayonni e'tiborga olgan holda nazorat o'rnatish, natijalarni tahlil qilish, istiqbolli strategik rejalashtirish demakdir.

Bunda tashkiliy jarayonlar boshqaruvni ta'minlovchi tuzilma, vazifalar, protseduralar va resurslar to'plami ekanligini hisobga olgan holda, uning tarkibiy elementlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liq, talablar va tamoyillar, funksiyalar, sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi. OTMda sifat tizimini yaratishning maqsadi doimiy ta'lim jarayonini takomillashtirish va bitiruvchilar tayyorlash sifatini erishish, shuningdek, OTMning mavjud salohiyatidan (kadrlar, ilmiy, resurs) foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Belgilangan maqsad quyidagi vazifalarni hal qilishni talab qiladi [7]:

- OTMning o'quv faoliyati jarayonlarini aniqlash;
- barcha jarayonlarni identifikatsiyalash;
- o'zaro aloqalar o'rnatish;

- barcha tashkil etilgan jarayonlarning borishini muvofiqlashtirish, ularni bir-biri bilan kesishishini hisobga olgan holda bog'lash;
- barcha jarayonlarning hujjatli tavsiflash, ro'yxatga olish va ularni tasdiqlash;
- hujjatlashtirilgan jarayonlarni amalga oshirish va zarur hollarda korreksiyalab borish.

OTM faoliyati missiyasini ishlab chiqishda maqsadlarni jamoaviy qadriyatlarga sodiq qolgan holda zamonaviy ko'rinishdagi natijadorlikka qaratilgan motivatsiya tizimini yaratish menejmentning kontseptual vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda operativ (tezkor) boshqaruvdan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Boshqaruvning bunday yondashuvi vazifalar qisqa vaqt oralig'ida tezkor ravishda hal qilinadigan, universitetning kundalik hayotida duch qeladigan jarayonni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

OTMning sifat menejmenti tizimining samaradorligi uning qanday modellashtirilganligiga bog'liq bo'lib, sifat menejmentini modellashtirish jarayonlarni to'g'ri amalga oshirish, hujjatlarni boshqarish, sifat menejmenti tizimining tashkiliy tuzilmasini belgilash, monitoring tizimini yaratish, ish jarayonlarini rejalashtirish, tarkibiy bo'linmalarining ichki tekshiruvlari va o'zini o'zi baholashni amalga oshirish, doimiy takomillashtirish, tuzatish va profilaktik harakatlariga xizmat qiladi.


Hozirgi kunda jahon tajribasida universitetlarda sifat menejmenti tizimlarining bir qator modellari mavjud [7]:

- ISO 9001:2000 xalqaro standarti bo'yicha sifat menejmenti tizimi modeli;
- Yevropa sifat menejmenti fondi (EFQM) modeli va uning oliy ta'lim uchun modifikatsiyalari;
- Tvente universitetining (Niderlandiya) Oliy ta'lim siyosatini tadqiq qilish markazi modeli (CHEPS);
- Niderlandiya universitetlari assotsiatsiyasi modeli (VSNU);
- Belgiya-Niderlandiya modeli (HBO Expert Group);

➤ Ta'lim sohasidagi "Baldrige National Quality Award" Amerika Milliy sifat mukofoti modeli;

➤ Avstraliya universitetlari uchun standart (etalon) test sinovi modeli.

Yuqorida keltirilgan nazariy va amaliy xulosalar va takliflarga asoslanib, OTMda ta'lim sifati menejmenti oldiga vazifalarni belgilab beruvchi talab va ehtiyoj manbalari hamda faoliyat yo'nalishlarini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasmga qarang):



1-rasm. OTMda ta'lim sifati menejmentini talab va ehtiyojga qaratilgan faoliyati sxemasi

Yuqoridagilar OTMlarda tegishli yo'nalishlarni doimiy tarzda rivojlantirish, tegishli ko'rsatkichlarni aniqlab, tahlil qilish va kerakli ma'lumotlarni olish imkonini

beradigan ichki monitoring tadqiqotlarini muntazam yo'lga qo'yish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu orqali ta'limning yakuniy natijasini shakllantiruvchi omillarning ta'sir darajasini nazorat qilish va boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF – 4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. “Xalq so'zi” gazetasi, 2017 yil 8 fevral, № 28 (6722).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 06/22/60/0082.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 470-son “Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi qarori, 09/19/470/3251.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 467-son “Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, 09/19/467/3264.

5. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz // “Xalq so'zi” gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, № 238 (8018).

6. Avetisov A.A. //O sistemologicheskome podxode v teorii otsenki upravleniya kachestvom obrazovaniya // Kvalimetriya cheloveka i obrazovaniya: metodologiya i praktika. Natsionalnaya sistema otsenki kachestva obrazovaniya v Rossii: Materialy 5-go simpoziuma. M.: Izd-vo Issled. sentra problem kachestva podgotovki spetsialistov, 1996. S. 52 – 55.

7. Dianova V.Yu. Formirovanie sistema menedjmenta kachestva v vuze // Uspexi sovremennogo yestestvoznaniya. – 2004. – № 11. – S. 105-107.

8. Kryukov D. O. Sistema menedjmenta kachestva obrazovaniya: ponyatie, aktualnost, osnovnye modeli i mirovye tendentsii // Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta. 2009. №. 2. Ch. I. 107-114